

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 237 sahifa.
2025-yil, 13-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	



UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASTERLI MEXANIZMI TAHLILI

Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li

Urganch Ranch texnologiya universiteti

Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0004-1932-6905

Email: oybekodamboev@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi korxonalarni boshqarish tizimini takomillashtirish, aholi uchun qulay va xavfsiz yashash sharoitlarini ta'minlaydigan infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish, uy-joy kommunal xo'jaligi kompleksiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda natijada uy-joy kommunal xizmatlarining sifatini yaxshilash masalalari bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasini isloh qilishning dolzarb vazifalari sifatida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: uy-joy kommunal xo'jaligi, tizimni takomillashtirish, infratuzilma, modernizatsiya qilish, uy-joy kommunal xo'jaligi kompleksi, innovatsion texnologiyalar, uy-joy kommunal xizmatlari.

Abstract: The article analyzes the improvement of the management system of housing and communal service enterprises, the modernization of infrastructure facilities that ensure comfortable and safe living conditions for the population, the introduction of innovative technologies into the housing and communal complex, and the resulting improvement in the quality of housing and communal services. These issues are identified as current priorities in the reform of this sector of the economy.

Keywords: housing and communal services, system improvement, infrastructure, modernization, housing and communal complex, innovative technologies, housing and communal service quality.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы совершенствования системы управления предприятиями жилищно-коммунального хозяйства, модернизации инфраструктурных объектов, обеспечивающих населению комфортные и безопасные условия проживания, внедрения инновационных технологий в комплекс жилищно-коммунального хозяйства, а также повышения качества жилищно-коммунальных услуг. Эти направления определены как актуальные задачи реформирования экономики в данной сфере.

Ключевые слова: жилищно-коммунальное хозяйство, совершенствование системы, инфраструктура, модернизация, комплекс жилищно-коммунального хозяйства, инновационные технологии, жилищно-коммунальные услуги.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekistonda loyihalashtiruvchi va suv xo'jaligi tashkilotlari qidirib topilgan hamda tasdiqlangan yer osti suvlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish ustida ishlamoqda. Ayrim hududlarda yer osti suvlarining maqsadli foydalanilishini gidrogeologik asoslash bilan uyg'unlashtirish orqali zaxiralarni muhofaza qilish va suv sifatini yaxshilash imkoniyatlari kengaymoqda. Bu jarayon suv resurslarini barqaror boshqarish tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, markazlashgan isitish tizimi, kanalizatsiya, vodoprovod va elektr energiyasi bilan ta'minlangan uylarda yashovchi oilalar uy xo'jaligini yuritishda vaqtini tejab, uni samarali faoliyatga



yo'naltirish imkoniga ega. Bu esa aholining turmush darajasini oshirish, mehnat unumdorligini kuchaytirish va dam olish madaniyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanishi ishchi kuchini qayta ishlab chiqish jarayonini qo'llab-quvvatlab, xodimlarning bo'sh vaqtini oqilona tashkil etish, ularning kasbiy salohiyatini oshirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, bu soha iste'molchilarga yaratilgan moddiy boyliklarni yetkazib berishda, ularning sog'lig'ini saqlashda va atrof-muhit muhofazasini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Aholining madaniy va texnik saviyasini yuksaltirishda ham uy-joy kommunal xo'jaligining roli tobora ortib bormoqda.

Mazkur sohaning tarmoqlari o'zaro bog'liqligi va kompleksligi bilan ajralib turadi. Iste'molchilarni suv, issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlash tizimlari bir-birini to'ldiruvchi shaklda rivojlanmoqda. Har bir tarmoqning zamonaviy infratuzilmaviy yechimlari orqali kommunal xizmatlar sifati va uzluksizligi yaxshilanmoqda.

Kelgusida uy-joy kommunal xizmatlar tizimini takomillashtirishda klaster yondashuvi muhim istiqbol yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Klasterlash amaliyoti xizmatlar o'rtasida integratsiyani kuchaytiradi, resurslardan tejamkor foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda xizmat ko'rsatish sifati va hajmini oshirishga zamin yaratadi. Shu tariqa, kommunal xo'jalik sohasining rivoji iqtisodiyotning barqaror o'sishi va aholining farovon hayot kechirishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

V.N. Timoshchuk o'z ilmiy izlanishlarida iste'molchilarga taqdim etilayotgan uy-joy kommunal xizmatlarining miqdoriy va sifat jihatdan o'zgarishi natijasida ma'lum sinergiya effekti kuzatilishini qayd etadi hamda klasterlash jarayoni aholining yashash joylarida turar joy va kommunal komplekslarni mahalliyashtirish bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi [1].

A.N. Bichkova o'z maqolalarida [2] kommunal xizmat ko'rsatish klasterini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmining asosiy tarkibiy qismlarini — obyekt, subyekt, markaz yaratish algoritmi, shuningdek, klaster tuzilishiga ta'sir qiluvchi rejalashtirilgan natijalar va omillar deb belgilaydi.

Hozirgi vaqtda Xorazm viloyatida uy-joy kommunal xizmatlarning klaster shakli mavjud emas. Bu esa sarmoyaviy jozibadorlikning pastligi, boshqaruv tizimining samarasizligi hamda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining pastligini anglatadi. Viloyatdagi kommunal infratuzilma obyektlari, ayniqsa, kichik o'z-o'zini boshqarish (munitsipal) korxonalari jiddiy eskirgan holatda. Shu sababli baxtsiz hodisalarni bartaraf etish vaqti cho'zilmoqda, ta'mirlash xarajatlari esa yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda.

Ushbu vaziyatdan chiqishning innovatsion yo'li — uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni klaster asosida shakllantirish va uni innovatsion yo'nalishda rivojlantirishdir. S.I. Bajeno fikricha [3], zamonaviy uy-joy kommunal sektorini klasterlash — xizmatlarning doimiy uzilishlari sharoitida bozor iqtisodiyotiga integratsiyani tezlashtirishning samarali usullaridan biridir.

Ko'pgina tadqiqotlarda ishlab chiqarish va yuqori texnologiyali klasterlarga katta e'tibor qaratilsa-da, xizmat ko'rsatish sohasidagi klasterlarga kam e'tibor beriladi. I.V. Morozovning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, klasterlash uy-joy kommunal xo'jaligini boshqarish tizimi samaradorligini oshirish, soha siyosatini shakllantirish hamda hududlarda yashash sharoitlarini yaxshilashning innovatsion usuli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda Davlat statistika agentligining rasmiy ochiq manbalaridan olindi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, klaster tahlili, korrelyatsion-regressiya va komparativ tahlil usullari yordamida innovatsion rivojlanish mexanizmlarining samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uy-joy kommunal xo'jaligi klasteri deganda, ma'lum hududda joylashgan ishlab chiqarish, axborot, logistika va boshqa aloqalar tizimi asosida birlashtirilgan, ilg'or ilmiy, ta'lim va resurs tejaydigan texnologiyalarni uyg'unlashtiruvchi innovatsion dastur asosida faoliyat yuritadigan, uy-joy kommunal xizmatlarining sifatini oshirishga xizmat qiluvchi o'zaro ta'sirchan tuzilmalar majmuasi tushuniladi.

Klasterli yondashuv, an'anaviy ishlab chiqarish birlashmalaridan farqli ravishda, sohada innovatsion salohiyatni keng joriy etish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish, bozorni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish hamda davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv orqali resurslardan samarali foydalanish, xizmatlar turlarini diversifikatsiya qilish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirishga erishiladi.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish klasterini shakllantirishning asosiy maqsadi — uy-joy sektori korxonalari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish, xizmatlar sifati va uzluksizligini ta'minlash hamda natijada sinergik samara hosil qilishdan iborat. Bu tizim, o'zaro integratsiya qilingan ishtirokchilarni yagona innovatsion ekotizimga birlashtiradi va xizmatlar zanjirida qiymatni oshiradi.

Viloyatimizda ushbu yo'nalish bo'yicha yangi klaster tashabbuslarini joriy etish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Mavjud infratuzilma, energetika va suv ta'minoti tizimlarining modernizatsiyasi orqali klaster loyihalarini bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratilmoqda. Shu jarayonda xorijiy tajriba — xususan, suv ta'minoti va kanalizatsiya klasterlari hamda energiya tejovchi texnologik klasterlar — mahalliy model sifatida o'rganilmoqda.

Masalan, suv ta'minoti va kanalizatsiya klasterlari innovatsion loyihalar asosida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni jadallashtirish uchun samarali platforma bo'lib xizmat qiladi. Energiya tejovchi texnologik klasterlar esa energiya xizmatlari bozorini rivojlantirish, energiya sarfini kamaytirish va energiya samarador mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliy darajada kengaytirishga zamin yaratadi.

Shu tariqa, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida klasterlarni tashkil etish yo'nalishi O'zbekiston uchun yangi, ammo istiqbolli tashabbus sifatida ko'rilmogda. U nafaqat xizmatlar sifatini yaxshilash, balki innovatsion iqtisodiyot va "yashil texnologiyalar" asosida resurslardan tejamkor foydalanish imkonini beruvchi samarali boshqaruv modelini shakllantiradi.

Klasterli tashabbusni tashkil etishning institutsional shartlari quyidagilardan iborat:

- Uy-joy kommunal xizmatlari sifatini yaxshilashga, kommunal xizmat ko'rsatish obyektlarida avariya holatlarini 30 foizga kamaytirishga hamda aholining xizmatlar sifati borasidagi qoniqish darajasini oshirishga qaratilgan 2025–2030-yillarga mo'ljallangan "Uy-joy kommunal xizmatlari sifatini ta'minlash" ustuvor loyihasining amalga oshirilishi;

- Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish formatida o'zaro manfaatli hamkorlikdan manfaatdor bo'lgan asosiy korxonalarining mavjudligi;

- Klaster a'zolari o'rtasida barqaror hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish;

- Mahalliy hokimiyat organlarining klaster ishtirokchilari va biznes vakillari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda o'z-o'zini boshqarish darajasida iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam berish borasidagi tashabbuslari.

Klasterlarning markazi (yoki yadrosi) — bu ekspertlar va loyihalar kengashlarini, strategik rejalashtirishni, davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikni o'z ichiga olgan hamda klaster ishtirokchilari o'rtasida hamkorlik va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muvofiqlashtiruvchi tuzilmadir.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida klasterlarni yaratish algoritmi esa bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi — hududiy tahlil, resurs salohiyatini baholash, ishtirokchilarni aniqlash, iqtisodiy asos yaratish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bosqichlari shular jumlasidandir.

Uy-joy kommunal xo'jaligi klasterining obyekti — bu klaster ishtirokchilarining manfaatlarini ifoda etuvchi, ularning o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan tizimdir. U klaster subyektlarining faoliyatini birlashtirish orqali uy-joy kommunal xizmatlari sifatini yaxshilashga va sinergik samaraga erishishga xizmat qiladi.

Klasterlarning potensial elementlari vakillari, xizmatlar iste'molchilari hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida seminarlar o'tkazish, axborot materiallarini tarqatish, jamoat joylarida va ommaviy axborot vositalarida tushuntirish ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega. Bu faoliyat aholining xabardorligini oshirish va klaster tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun zarurdir.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida klasterlarning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchilari sifatida quyidagi yondashuvlar aniqlanadi:

- birinchidan, uy-joy kommunal xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar (resurs yetkazib beruvchi tashkilotlar, boshqaruv kompaniyalari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqa xizmat ko'rsatuvchi subyektlar);

- ikkinchidan, xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yurituvchi tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, o'quv yurtlari va malaka oshirish markazlari;

- uchinchidan, uy-joy kommunal xizmatlaridan foydalanuvchilar (aholi va tashkilotlar).

Bundan tashqari, klaster tarkibiga nafaqat bevosita kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi, balki ular bilan bog'liq qo'shimcha xizmatlarni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar ham kirishi mumkin.

Uy-joy kommunal xo'jaligini klaster asosida rejalashtirish jarayoni bir necha muhim bosqichlardan iborat:

- bozorni tahlil qilish — bu bosqich mintaqadagi uy-joy kommunal xizmatlari bozorining holati va imkoniyatlarini o'rganishni, ehtiyojlarni baholashni va istiqbollarni aniqlashni o'z ichiga oladi;

- sohadagi to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash — uy-joy kommunal korxonalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashkiliy, moliyaviy yoki texnik cheklavlarni tahlil qilish;

- xizmatlar sifatini baholash — aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini, ularning barqarorligini va qoniqish ko'rsatkichlarini aniqlash.



Uy-joy kommunal xizmatlari bozorida klasterli tashkil etishning dolzarbligi va imkoniyatlari iqtisodiy-matematik usullar yordamida aniqlanadi. Bunda xizmat ko'rsatish bozorining tahlili natijalaridan, raqamli modellashtirish usullaridan hamda ekspert baholash mexanizmlaridan foydalaniladi.

Klasterli shakllantirish jarayonida tashqi muhitdagi tahdidlar va imkoniyatlarni baholash, raqobatchilarga nisbatan tashkilotlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash muhimdir. Shu maqsadda SWOT-tahlil, mahalliyashtirish koeffitsiyentlari, ekspert usuli va boshqa analitik vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Natijada, klasterli asosiy maqsadi — uy-joy kommunal xizmatlari sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorlikni ta'minlash; vazifalari esa xizmat ko'rsatish tizimini optimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va aholining farovonligini yuksaltirishdan iboratdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, kommunal xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun asosiy e'tibor kommunal xizmat korxonalarining klasterli boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Bu masala nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb tadqiqot yo'nalishidir. Chunki mulkchilikning turli shakllari sharoitida nafaqat ishlab chiqarish jarayonini, balki mahsulot va xizmatlarning sotilishini ham kompleks tarzda boshqarish zarur. Shu sababli, klasterli boshqaruv samaradorligini baholashda tashqi muhit omillarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir, chunki klasterli boshqaruv tizimining yakuniy natijalari ishlab chiqarish doirasidan tashqarida ham o'z ifodasini topadi.

Kommunal xizmatlarni klasterli boshqaruv samaradorligini baholash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- baholashning asoslanishi va maqsadini aniqlash;
- ko'rsatkichlarni tanlash mezonlarini belgilash;
- xizmat ko'rsatish maqsadlarini mahsulot turlari bo'yicha ehtiyojlar bilan solishtirma baholash;
- yakuniy natijalarni xizmat vazifalari bilan solishtirish;
- ehtiyojlar va yakuniy natijalar o'rtasidagi nisbatni aniqlash;
- boshqaruv samaradorligini (unumdorligini) baholash;
- resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini va maqsadli ko'rsatkichlarni aniqlash;
- resurslar bilan yakuniy natijalar o'rtasidagi nisbatni o'lchash;
- iqtisodiy samarani, har bir resurs turidan foydalanish darajasi bilan bog'liq holda baholash.

Kommunal xizmatlarni klasterli boshqaruv samaradorligini baholashda modellashtirish usulidan ham foydalanildi. Ushbu usul yordamida boshqaruv xarajatlariga nisbatan iqtisodiy samaradorlik darajasi aniqlanadi. Agar iqtisodiy samara foizli ko'rsatkichda xarajatlardan yuqori bo'lsa, bu holat iqtisodiy yutuq sifatida baholanadi.

Shu nuqtayi nazardan, biz tomonidan ishlab chiqilgan kommunal xizmatlarni klasterli boshqaruv samaradorligini baholash yondashuvi boshqaruv tizimining xodimlar faoliyatiga, xizmat ko'rsatish sifati va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va iqtisodiy natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.M.Xarinova, Formirovaniye sistemi upravleniya sferoy jilishnokommunalnix uslug munitsipalnix obrazovaniy, oriyentirovannoy na interesi naseleniya [Elektronniy resurs] Dis.kand. ekon.nauk: 08.00.05. M.: RGB, 2006. (Iz fondov Rossiyskoy Gosudarstvennoy Biblioteki).
2. A.I.Dobrunova. Formirovaniye i razvitiye sistemi jizneobespecheniya naseleniya na selskix territoriyax. avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. Voronej – 2020
3. N.V.Provalenova. Razvitiye sotsialnoy infrastrukturi selskix territoriy: jilishno-kommunalniy aspekt. avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. Knyaginino – 2020
4. Yermenko A.YE. Funktsional sferi uslug v usloviyax sovremennoy ekonomiki Rossii.// Natsionalniye interesi: prioriteti i bezopasnost, 23 (260) – 2014.
5. Dmitriyeva YE.A. Faktori i prinsipi razvitiya regionalnogo rinka uslug Magadanskoy oblasti. VESTNIK NAT № 2 (22) aprel – iyun 2012.
6. Maxosheva S.A. Metodicheskiye prinsipi i podxodi k formirovaniyu modeli razvitiya regionalnoy sferi uslug. Izvestiya Kabardino-Balkarskogo nauchnogo sentra RAN № 3 (29) 2009.
7. Krivko S.R. O principax razvitiya sferi uslug v problemnix regionax rf. obshestvo: politika, ekonomika, pravo (2012, № 4).
8. YE.V.Klyushnikova, YE.M.Shitova. Metodicheskiye podxodi k raschetu integralnogo pokazatelya, metodi ranjirovaniya./ Elektronniy nauchno- prakticheskiy jurnal «InnoSentr», vipusk № 1(10) aprel 2016. 4-17 str.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100